

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI JINOYATLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Obidova Ozoda Rufat qizi

Namangan davlat universiteti

Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

obidovaozoda311@gmail.com

Ibragimov Mansur

Ilmiy rahbar: Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21093676>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning nazariy-huquqiy asoslari, ushbu toifadagi jinoyatlarning tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi va xususiyatlari o'rganilib, tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: axborotlashtirish, axborot texnologiyalari, kiberjinoyatchilik, kompyuter sabotaji, kompyuter jinoyatlari, kiberxavfsizlik, raqamli texnologiyalar, elektron axborot, axborot xavfsizligi, kompyuter tizimlari, ma'lumotlarni himoya qilish, internet jinoyatlari, kiberhujumlar.

Abstract: This article examines and analyzes the theoretical and legal foundations of crimes in the field of information technologies, which are becoming increasingly relevant today, as well as the classification and specific features of this category of crimes. The social danger and characteristics of crimes in the field of information technologies are also studied and analyzed.

Keywords: informatization, information technologies, cybercrime, computer sabotage, computer crimes, cybersecurity, digital technologies, electronic information, information security, computer systems, data protection, internet crimes, cyberattacks.

Аннотация: В данной статье изучаются и анализируются теоретико-правовые основы преступлений в сфере информационных технологий, которые в настоящее время приобретают всё большую актуальность, а также классификация и специфические особенности данной категории преступлений. Кроме того, рассматриваются и анализируются общественная опасность и характерные особенности преступлений в сфере информационных технологий.

Ключевые слова: информатизация, информационные технологии, киберпреступность, компьютерный саботаж, компьютерные преступления, кибербезопасность, цифровые технологии, электронная информация, информационная безопасность, компьютерные системы, защита данных, интернет-преступления, кибератаки.

Kirish. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga axborot texnologiyalarini keng miqyosda jalb qilinishi ko'plab ijobiy natijalar bilan bir qatorda ushbu sohadagi qonunbuzilishlari va jinoyatlarning ham keskin ravishda oshishiga sabab bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XX¹ bobida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning turlari keltirib o'tilgan. Ushbu bob 2007-yil 30-noyabrda qabul qilingan "Axborotlashtirish va ma'lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq kiritilgan. Ushbu jinoyatlar 9 ta bo'lib, bular axborotlashtirish qoidalarini buzish, kompyuter axborotidan qonunga xilof

ravishda(ruxsatsiz) foydalanish, kompyuter tizimidan, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridan qonunga xilof ravishda(ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish, kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish, kompyuter sabotaji, zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish, telekommunikatsiya tarmog'idan qonunga xilof ravishda foydalanish(ruxsatsiz) foydalanish, kriptο-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish, mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirish jinoyatlaridan iborat.

1-Jadval. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatiga ko'ra tasniflash

Ijtimoiy xavfi kata bo'lmagan	Uncha og'ir bo'lmagan	Og'ir	O'ta og'ir
278 ¹ -modda (Axborotlashtirish qoidalarini buzish)	278 ⁷ -modda 2-qism (Telekommunikatsiya tarmog'idan qonunga xilof ravishda foydalanish)		
278 ² -modda (kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda(ruxsatsiz) foydalanish)	278 ⁸ -modda 3-qism. (Kriptο-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish)		
278 ³ -modda (kompyuter tizimidan, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridan qonunga xilof ravishda(ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish)	278 ⁹ -modda 4-qismlar (Mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirish)		
278 ⁴ -modda (Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish)			
278 ⁵ -modda (Kompyuter sabotaji)			
278 ⁶ -modda (Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish, yoki tarqatish)			
278 ⁷ -modda 1-qism (Telekommunikatsiya tarmog'idan qonunga xilof ravishda foydalanish)			
278 ⁸ -modda 1 va 2-qism. (Kriptο-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish)			
278 ⁹ -modda 1,2 va 3-qismlar (Mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirish)			

Ushbu bobda nazarda tutilgan jinoyatlar O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi 15-moddasida belgilan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasiga ko'ra ijtimoiy xavfi kata bo'lmagan hamda uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar tasnifiga ajratiladi. Ijtimoiy xavfi kata bo'lmagan jinoyatlar guruhiga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahurm qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Axborot texnologiya sohasidagi jinoyatlar tarkibidagi obyektiv va subyektiv belgilarni ifadolovchi elementlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jinoyat kodeksining XX¹ bobida nazarda tutilgan jinoyatlarning barchasida subyekt jinoyat sodir etgunga qadar 16 yoshga to'lgan, aqli raso shaxs hisoblanadi. Subyektiv tomondan ushbu jinoyatlar aybning turli shakllarini jumladan qasddan va ehtiyotsizlik orqasidan sodir qilinishini namoyon qiladi. Axborot texnologiyalari sohasidagi ayrim jinoyatlar subyektiv tomon belgilariga ko'ra murakkab aybdan iborat bo'ladi. M.Rustambaeving fikricha, JK 278¹-moddasida nazarda tutilgan axborotlashtirish qoidalarini buzish jinoyati murakkab aybli qilmish bilan sodir etilishi mumkin. Bunda jinoyat sodir qilayotgan shaxs axborotlashtirish qoidalarini buzishga nisbatan o'z harakatlarini qasddan amalga oshiradi lekin ushbu qilmish natijasida yuz beradigan fuqarolarning huquqlariga yoki qonuniy manfaatlariga yoxud davlat va jamoat manfaatlariga jiddiy ziyon yoki ko'p miqdorda zarar yetishi shaklidagi oqibatga nisbatan aybning ehtiyotsizlik shaklini namoyon qiladi. Kompyuter sabotaji jinoyati hamda zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish, yoki tarqatish jinoyati subyektiv tomondan faqat qasddan sodir etiladi va ushbu mazmundagi norma JK maxsus qismida berilgan ushbu moddalar dispozitsiyasida ham mustahkamlab qo'yilgan.

Ushbu jinoyatlarning asosiy obykti axborot texnologiyalari sohasidagi munosabatlar, kompyuter axborotining xavfsizligini va kompyuter tizimlari va tarmoqlarining xavfsiz va normal faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Qo'shimcha obyekt esa shaxslarning shaxsiy hamda sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlari, boshqa turdagi shaxsiy va mulkin manfaatlar, jamiyat va davlatning manffatlarini qo'riqlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar guruhidagi JK 278⁸-moddasida nazarda tutilgan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish yoki JK 278⁹-moddasida nazarda tutilgan mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirish jinoyatlarida asosiy obykti kriptovalyuta va mayning faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishning qonun bilan belgilangan tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblansa, qo'shimcha obyekt sifatida davlatning moliyaviy manfaatlarini ta'minlovchi shuningdek elektr energiyasidan oqilona foydalanishni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyatlar turli usullar bilan asosan qilmishning harakat ko'rinishida amalga oshiriladi. Masalan, JK 278²-moddasida nazarda tutilgan kompyuter axboritdan qonunga xilof ravishda(ruxsatsiz) foydalanish jinoyati axborot-hisoblash tizimlari,tarmoqlari va ularning tarkibiy qismlaridagi axborotlardan qonunga xilof foydalanish, ushbu harakat natijasida axborotni yo'q qilib yuborilishi, modifikatsiyalashtirilishi, undan nusxa ko'chirilishi yoxud uni qo'lga kiritilishi, elektron hisoblash mashinalari tizimi yoki ularning tarmoqlari ishining buzilishi kabi

ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning dispozitsiyasi asosan blanket dispozitsiya hisoblanib, unga ko'ra jinoyat tarkibini belgilarini aniq bilish uchun boshqa normative huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan tartib qoidalarga murojlat qilishga to'g'ri keladi. Masalan, JKning 278⁸-moddasida nazarda tutilgan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish yoki JK 278⁹-moddasida nazarda tutilgan mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirish jinoyatlarining obyektiv tomoni belgilarini to'la aniqlash uchun kriptovalyutaga hamda mayning faoliyatiga doir munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanishni taqazo etadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar tarkibining mazmuniga ko'ra moddiy hamda formal tarkibli jinoyatlarga bo'linadi. Ushbu turdagi jinoyatlarda moddiy tarkibli jinoyat hisoblanuvchi jinoyatlar salmoqli o'rinni egallaydi. Jumladan, axborotlashtirish qoidalarini buzish, kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda foydalanish, kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish, kompyuter sabotaji kabi jinoyatlar moddiy tarkibli hisoblanib, sodir etilgan qilmishni jinoyat sifatida baholash hamda jinoyatni tugallangan deb topish uchun sodir qilingan qilmish bilan jinoiy oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish talab etiladi. Axborot texnologiyalari sohasidagi qolgan jinoyatlar formal tarkibli jinoyatlar hisoblanib, jinoyat sodir qilingan vaqt, ayni vaqtda jinoyat tugallangan vaqt deb ham topiladi. Bunday jinoyatlarda jinoiy oqibatning kelib chiqishi yoki kelib chiqmasligi jinoiy javobgarlik masalasini hal qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar guruhidagi JK 278⁸-moddasida nazarda tutilgan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish yoki JK 278⁹-moddasida nazarda tutilgan mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirish jinoyatlari ma'muriy preyuditsiya talab qilinadi. Ma'muriy preyuditsiya – bu shaxsning ilgari sodir etgan va qonuniy kuchga kirgan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlangan ma'muriy huquqbuzarligi keyinchalik u xuddi shunday qilmishni yana sodir etsa, ushbu holat jinoyat tarkibini yuzaga keltirishi yoki boshqa og'irroq huquqiy oqibatlarga yuzaga kelishiga asos bo'ladigan huquqiy institutdir. Ushbu institut ma'muriy va jinoiy javobgarlikni o'zaro bog'laydi va huquqiy uzviylikni ta'minlaydi.

Xulosa. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasiga ko'ra yuqori darajada xavf tug'diruvchi jinoyatlar hisoblanmasa ham, jamiyatning barcha jabhalariga axborot texnologiyalari keng tatbiq etilayotgani shuningdek davlat idoralarining hamda iqtisodiyotning raqamlashtirish jarayonlari tobora jadallashib borayotgani ushbu sohadagi jinoyatlar guruhini va javobgarlik masalalarini qayta ko'rib chiqish, axborot texnologiyalari sohasidagi yangi turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish, ular uchun javobgarlik hamda jazo me'yorlarini ishlab chiqish, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning qat'iy tartibini va ro'yxatini belgilash kabi masalalarni dolzarb ahamiyat kasb etishga sabab bo'lmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Zunnunov M.M., Kriminalistika nazariyasi, Toshkent, 2024, B-130
2. Karimov O.O., Kiber jinoyatlar, Toshkent, 2023, B-87
3. Abdullayev B.B., Axborot tizimlari, Toshkent, 2024, B-76
4. Islomov S.S., Jinoyat huquqi, Toshkent, 2023, B-102
5. Qodirov N.N., Kriminalistik tahlil, Toshkent, 2024, B-115